

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 258 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадирова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIIY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI.....	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	



DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI



Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi,
Akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
ORCID: 0009-0001-9395-1336

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat boshqaruvi organlarida inson kapitalini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Inson kapitali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim strategik omili sifatida qaralib, uni shakllantirish, rivojlantirish va undan samarali foydalanish mexanizmlarining institutsional asoslari yoritib beriladi.

Tadqiqot doirasida zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari, raqamli transformatsiya jarayonlari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, xodimlarni rag'batlantirish va faoliyatni baholash tizimlari chuqur tahlil qilinadi. So'nggi besh yil davomida to'plangan statistik ma'lumotlar asosida davlat boshqaruvi organlarida kadrlar salohiyatining rivojlanish dinamikasi o'rganilib, mavjud imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida inson kapitalini boshqarish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, davlat boshqaruvi, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, kadrlar salohiyati, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of organizational and economic mechanisms of human capital management in public administration bodies. Human capital is regarded as a strategic factor for enhancing the effectiveness of public governance, and the institutional foundations for its formation, development, and efficient utilization are examined.

The study explores modern management concepts, digital transformation processes, competency-based approaches, as well as incentive and performance evaluation systems. Based on statistical data covering the last five years, trends in the development of human resource capacity within public administration bodies are analyzed, and potential opportunities and future directions are identified.

The research findings serve as a basis for developing scientific and practical recommendations aimed at improving the efficiency of human capital management in the public sector.

Keywords: human capital, public administration, organizational mechanism, economic mechanism, human resources, governance efficiency.

Аннотация. В статье представлен комплексный теоретико-практический анализ организационных и экономических механизмов управления человеческим капиталом в органах государственного управления. Человеческий капитал рассматривается как стратегически важный фактор повышения эффективности государственного управления, раскрываются институциональные основы его формирования, развития и рационального использования.

В рамках исследования проанализированы современные управленческие концепции, процессы цифровой трансформации, компетентностный подход, а также системы стимулирования и оценки деятельности персонала. На основе статистических данных за последние пять лет изучена динамика развития кадрового потенциала органов государственного управления, определены ключевые возможности и перспективные направления развития.

По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности управления человеческим капиталом в системе государственного управления.

Ключевые слова: человеческий капитал, государственное управление, организационный механизм, экономический механизм, кадровый потенциал.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv, raqamli iqtisodiyot va bilimlarga asoslangan jamiyat shakllanishi sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi inson kapitalining sifati, uni boshqarish mexanizmlari hamda rivojlantirish strategiyalariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. Inson kapitali shaxsning bilimlari, ko'nikmalari, malakasi, sog'lig'i, mehnatga layoqati va ijodiy salohiyati majmuini ifodalab, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi [1].

Davlat boshqaruvi organlarida inson kapitalini boshqarish masalasi xususiy sektor bilan taqqoslaganda yanada ko'p qirrali va murakkab xususiyatga ega. Mazkur sohada iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, jamoatchilik manfaatlari, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Shu jihatdan, davlat sektorida inson kapitalini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini izchil takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, davlat xizmatchilarining professional salohiyatini yuksaltirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning ochiq hamda shaffof mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda [3]. Xususan, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvi organlarida inson kapitalini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularni yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi davlat boshqaruvi organlarida inson kapitalini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish, mavjud holatni tizimli tahlil qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus usullar, jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, statistik hamda solishtirma tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy fanlarda mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX-asrning 50–60-yillarida shakllandi. Ushbu nazariyaning asoschilari sifatida T. Shults va G. Bekkerning ilmiy tadqiqotlari keng e'tirof etiladi [4]. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik hamda mehnat migratsiyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalining sifat va hajmini oshiradi hamda bu jarayon iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi tizimida inson kapitali nafaqat mehnat resursi sifatida, balki davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan strategik resurs sifatida qaraladi [5]. Shu sababli, davlat boshqaruv organlarida inson kapitalini boshqarish jarayoni rejalashtirish, tanlash, rivojlantirish, rag'batlantirish va baholash kabi o'zaro uzviy bog'liq bosqichlarni qamrab oladi.

Tashkiliy mexanizmlar inson kapitalini boshqarish jarayonida institutlar, tashkiliy tuzilmalar, normativ-huquqiy asoslar va boshqaruv usullarining yaxlit tizimini ifodalaydi. Davlat boshqaruv organlarida mazkur mexanizmlar quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, kadrlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirish. Davlat kadrlar siyosati davlat xizmatchilarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning xizmat faoliyatini baholash tizimini o'z ichiga oladi [6]. So'nggi yillarda O'zbekistonda ochiq tanlov mexanizmlari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va meritokratiya tamoyillarini joriy etish orqali kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Ikkinchidan, tashkiliy tuzilmani optimallashtirish. Davlat boshqaruv organlarining tashkiliy tuzilmasi inson kapitalidan samarali foydalanishga xizmat qilishi zarur. Vakolat va mas'uliyatni aniq taqsimlash, boshqaruv jarayonlarining moslashuvchanligini oshirish inson kapitali samaradorligini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [7].

Uchinchidan, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish. Elektron hukumat platformalari, HR-axborot tizimlari hamda raqamli monitoring vositalaridan foydalanish inson kapitalini boshqarish jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini ta'minlash imkonini beradi [8].

Iqtisodiy mexanizmlar inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi moliyaviy hamda iqtisodiy vositalar majmuasini ifodalaydi. Davlat boshqaruv organlarida mazkur mexanizmlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi.

Birinchidan, mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish tizimi. Davlat xizmatchilarining ish haqi ularning malakasi, egallab turgan lavozimi, xizmat staji va erishilgan natijalari bilan bevosita bog'liq bo'lishi lozim [9]. Natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish tizimining joriy etilishi inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, ta'lim va malaka oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar. Davlat byudjeti va maxsus jamg'armalar hisobidan kadrlar malakasini oshirish inson kapitaliga uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida qaraladi [10].

Uchinchidan, ijtimoiy himoya va kafolatlar tizimi. Davlat xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi va kafolatlar bilan ta'minlanishi ularning mehnat faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda kadrlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi [11].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat boshqaruv organlarida inson kapitalini boshqarish masalalari bo'yicha milliy va xorijiy olimlar tomonidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, T.Shults va G.Bekker inson kapitali nazariyasining metodologik asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa [4], P.Druker bilimlar xodimlari va ularning boshqaruvdagi o'rni haqida chuqur tahlillarni taqdim etgan [12].

Xorijiy adabiyotlarda davlat sektorida inson resurslarini boshqarishning institutsional va iqtisodiy jihatlari, samaradorlik va natijadorlik masalalari keng yoritilgan [13]. Scopus bazasida indekslangan tadqiqotlarda davlat xizmatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv, strategik HRM va raqamli texnologiyalarning roli alohida ta'kidlanadi [14].

Milliy adabiyotlarda esa O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, kadrlar siyosatini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan [15]. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, xizmat faoliyatini baholash va rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligi o'rganilgan [16].

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Davlat boshqaruv organlarida inson kapitali rivojlanishining statistik tahlili. So'nggi besh yil davomida (2019–2023 yillar) O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlarida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va moliyaviy resurslar hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon, avvalo, davlat xizmatchilarining soni, ularning malaka darajasi, ta'limga va qayta tayyorlashga yo'naltirilgan xarajatlar hamda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarida o'z aksini topdi [17].

1-jadval. 2019–2023-yillarda davlat boshqaruv organlarida inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlar dinamikasi

Yillar	Malaka oshirish va qayta tayyorlash (mlrd so'm)	Ijtimoiy rag'batlantirish (mlrd so'm)	Raqamli HR tizimlari (mlrd so'm)
2019-yil	420	310	95
2020-yil	510	365	120
2021-yil	680	420	185
2022-yil	890	510	260
2023-yil	1120	640	340

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [17], [18].

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda inson kapitaliga yo'naltirilgan jami xarajatlar qariyb 2,5 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2021–2023-yillarda malaka oshirish va raqamli HR tizimlariga yo'naltirilgan mablag'larning jadal o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat davlat boshqaruvi tizimida inson kapitalini strategik resurs sifatida e'tirof etish kuchayganidan dalolat beradi.

Mazkur jadval asosida xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy mexanizmlarning samarali ishlashi davlat xizmatchilarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda hamda uzoq muddatda boshqaruv sifatini yaxshilashga zamin yaratmoqda.

2. Davlat boshqaruv organlarida mehnat unumdorligi va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlik. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasini baholashda mehnat unumdorligi muhim integrallashgan ko'rsatkich hisoblanadi. Davlat boshqaruvi sohasida mehnat unumdorligi qarorlar sifati, xizmatlar tezkorligi va jamoatchilik qoniqish darajasi orqali namoyon bo'ladi [20].

2-jadval. 2019–2023-yillarda davlat boshqaruv organlarida mehnat unumdorligi indeksleri

T/r	Yillar	Mehnat unumdorligi indeksi (2019=100)	Davlat xizmatlari sifati indeksi
1.	2019-yil	100	52
2.	2020-yil	106	58
3.	2021-yil	113	64
4.	2022-yil	121	71
5.	2023-yil	130	78


Manba: Jahon banki va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari [18], [20].

Jadvaldan ko'rinadiki, inson kapitalini rivojlantirish bilan mehnat unumdorligi o'rtasida bevosita ijobiy bog'liqlik mavjud. 2019-yilga nisbatan 2023-yilda mehnat unumdorligi indeksi 30 foizga oshgan. Shu bilan birga, davlat xizmatlari sifati indeksi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

Ushbu natijalar inson kapitalini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari, xususan, rag'batlantirish va investitsiya siyosatining samarali ekanligini tasdiqlaydi.

3. Davlat xizmatchilarining malaka oshirish ko'rsatkichlari tahlili.

Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu – bilim va kasbiy kompetensiyalardir. Shu bois davlat xizmatchilarining malaka oshirish kurslarida ishtiroki va qamrov darajasi muhim tahliliy ko'rsatkich hisoblanadi.



1-rasm. 2019–2023-yillarda davlat xizmatchilarining malaka oshirish kurslarida ishtirok etish darajasi (%).



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari [19].

Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2019-yilda davlat xizmatchilarining atigi 38 foizi yil davomida malaka oshirish kurslarida qatnashgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 67 foizga yetgan. Bu o'sish davlat boshqaruv organlarida tashkiliy mexanizmlarning takomillashuvi, ya'ni majburiy va rejalashtirilgan malaka oshirish tizimining joriy etilishi bilan izohlanadi.

Mazkur grafik asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar natijadorlikni oshirmoqda va davlat xizmatida professional kadrlar ulushining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

4. Tahlil natijalari bo'yicha umumiy xulosalar. Yuqoridagi jadval va grafiklar asosida quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin:

- davlat boshqaruv organlarida inson kapitaliga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar hajmi izchil oshib bormoqda;
- tashkiliy mexanizmlar (malaka oshirish, raqamlashtirish, ochiq tanlovlar) inson kapitali sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- iqtisodiy mexanizmlar (rag'batlantirish, ijtimoiy kafolatlar) davlat xizmatchilarining mehnat motivatsiyasini kuchaytirmoqda;
- inson kapitali rivoji davlat xizmatlari sifati va boshqaruv samaradorligining oshishiga olib kelmoqda.

Olingan statistik ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, davlat boshqaruv organlarida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar hajmi oshib bormoqda; ikkinchidan, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning uyg'unligi inson kapitali samaradorligini ta'minlamoqda; uchinchidan, raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish ushbu jarayonni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruv organlarida inson kapitalini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Inson kapitali davlat boshqaruvi tizimida strategik resurs sifatida namoyon bo'lib, uning rivoji bevosita ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va jamoatchilik ishonchining oshishiga xizmat qiladi va quyidagi takliflar keltirildi:

- Davlat boshqaruv organlarida inson kapitalini boshqarishning yagona konseptual modelini ishlab chiqish va joriy etish;
- Davlat xizmatchilarining malaka oshirishini uzluksiz va kompetensiyaga asoslangan tizimga o'tkazish;
- Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish tizimini aniq natijadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lash;
- Raqamli HR-platformalarni keng joriy etish orqali inson kapitalini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish;
- Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini baholashning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi davlat boshqaruv organlarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish, professional davlat xizmatini shakllantirish hamda mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – B. 1–17.
2. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. – Chicago: University of Chicago Press, 1964.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. 3-nashr. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
5. Drucker P.F. *Management Challenges for the 21st Century*. – New York: Harper Business, 2001.
6. Armstrong M. *Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice*. – London: Kogan Page, 2014.
7. OECD. *Public Service Leadership and Capability: Towards an Evidence-Based Approach*. – Paris: OECD Publishing, 2020.
8. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. – Washington, DC: World Bank, 2021.
9. Dessler G. *Human Resource Management*. – Boston: Pearson Education, 2017.
10. Ulrich D., Brockbank W. *The HR Value Proposition*. – Boston: Harvard Business School Press, 2005.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *Davlat boshqaruvi va bandlik statistik to'plami (2019–2023 yillar)*. – Toshkent, 2024.
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlar (2019–2023)*. – Toshkent, 2024.



13. Pollitt C., Bouckaert G. *Public Management Reform: A Comparative Analysis*. – Oxford: Oxford University Press, 2017.
14. Kim P.S., Kellough J.E., Nigro L.G. Public Human Resource Management: Strategies and Practices in the 21st Century // *Review of Public Personnel Administration*. – 2020. – Vol. 40, No. 2. – B. 195–217.
15. Abdurahmonov Q.X. *Inson kapitali va uni boshqarish masalalari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
16. Rahmonov O.R., Xolmuradov B.B. Davlat xizmatida kadrlar siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2021. – №4. – B. 45–52.
17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar (2019–2023)*. – Toshkent, 2024.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi*. – Toshkent, 2023.
19. O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi. *Davlat xizmatchilarining malaka oshirish ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy hisobot*. – Toshkent, 2023.
20. World Bank. *Worldwide Governance Indicators 2023*. – Washington, DC: World Bank, 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100